

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI FAKULTETI

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

FALSAFA FANI

O‘QITUVCHI SILLABUSI

Tuzuvchi: Navro‘z Raximov, katta o‘qituvchi

Fan/modul kodi 100.PHL2M	O‘quv yili 2020-2021	Semestr 2 (bahorgi)	ECTS - Kreditlar 2	
1 semestr - Kredit 2	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
Fan darajasi 100	Fan/modul turi majburiy		Modul rahbari Raximov N. Katta o‘qituvchi navrozbekraximov@gmail.com	
Universitet kampusi 2-blok	Hafta kunlari		Vaqt Kunning birinchi yarmida	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	<i>Falsafa</i>	<i>2-semestr</i> 30	<i>2-semestr</i> 30	<i>2-semestr</i> 60
2-semestr	Modul 1 Ma’ruza	15	15	30
	Modul 2 Semenar	15	15	30
	JAMI	30	30	60

Fanning tavsifi

«Falsafa» umumiy va keng tushuncha bo‘lib, olam, unda odam va ularning uyushmalari (jamoalari, ijtimoiy harakatlari, partiyalari, davlatlari va x.k.)ning o‘rni, qisqasi inson omili qanday? degan savollarga har bir tarixiy davrda, mintaqa va mamlakat xalqlari tafakkur va turmush tarzlaridan kelib chiqib, turlicha qarashlar mavjud bo‘lgan va hozir ham shunday. Har bir davrning buyuk donishmandlari o‘z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu-intilishlarini falsafiy ta’limotlarida ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g‘oyalarni o‘rtaga tashlaganlar. Shu munosabat bilan, "Falsafa" o‘quv fanida olingan bilimlarni o‘zlashtirish kelgusidagi tarjimon-tilshunos kadrlarning kasbiy faoliyati uchun juda muhimligini ta’kidlash lozim.

Fan mohiyati

Fanning mohiyati – bu “olam-odam” tizimidagi umumiy muammolar ustida fikr-mulohaza

yuritishdan iboratdir.

Fanning falsafiy masalalari ichki jihatdan ixtisoslashmagan, kundalik hayotda mavjud bo'lgan bilimlar bilan bog'liqdir. Bunday aloqa eng avvalo fanning falsafiy masalalarining tilida namoyon bo'ladi. Fanning falsafiy masalalarining tili shaxsning hayotiy tajribasini qayd etadigan so'zlarga boy bo'ladi. Bu so'zlarning vazifasi – odamlarning har kungi amaliy faoliyatini, ularning o'z atrofida sodir bo'layotgan voqelik bilan bevosita aloqaga kirishishlarini ta'minlash, shu jumladan, umumijtimoiy muhit bilan bevosita aloqaga kirishishini ta'minlashdan iborat. Fanning falsafiy masalalari tilini har kuni ishlatadigan tilimiz bilan solishtirib tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, umuman olganda fanning falsafiy masalalarining tili maxsus fanlar tiliga nisbatan jonliroq, tabiiy tilga yaqinroqdir. Falsafiy kategoriyalar madaniyatning rivojlanib borishi asosida shakllanadi hamda kundalik til strukturasi mujassamlashadi. Fanning falsafiy masalalari so'zlarni izohlash jarayonida o'z tushunchalarini tizimlashtiradi, ularning ma'nosini yanada chuqurlashtiradi, lekin ularning umumiy ma'nosini ham istemoldagi ma'nosini ham o'zgartirmaydi.

Falsafiy bilimlarning mazmuni o'z ichiga sog'lom fikrni jamlab, hodisalarning eng muhim sabablarini bilishga va ulardan kundalik amaliy foydalanishga qaratilgan bo'ladi

Fan natijasi

Fanni o'zlashtirish natijasida quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid falsafiy bilimlar ega bo'lish;
- falsafiy qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatini shakllantirish;
- falsafa rivojlanishining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari, dinning kelib chiqishi va uning funksiyalari, tabiat va jamiyat borlig'i to'g'risida tasavvurlarini shakllantirish;
- jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur va shaxsiy tahliliy tankid nuktai nazaridan yondashish, o'z-o'zini ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash tuyg'ularini hosil qilish;
- yoshlarda jamiyatni demokratishtirish va modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash.

Baholash mezonlari

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9- avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrdagi 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash ON, YaN dan iborat.

A. Baholash

1) Oraliq nazorat – 40 %, o'z ichiga:

– Seminarlarda faol ishtiroki – 5%;

– O'quv-mashg'ulot (topshiriqlarni bajarishi) – 5%;

– Case study imtihoni (yakka yoki guruhda ishlash, taqdimot, tahliliy maqola) –30%;

2) yakuniy nazorat (test asosida javob berish) – 60%.

B. Baholash

Baholash usullari	Og'zaki so'rov, taqdimotlar, yozma topshiriqlar
Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	Nazorat shakllari Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so'rovlar, og'zaki savol-javob, yozma ish, taqdimotlar ko'rinishida o'tkazilishi mumkin. Mustaqil fikrlash va tanqidiy mulohazani o'zida ifodalagan mukammal ish bajarilishi ko'zda tutiladi. Qo'yilgan

	<p>masalalar talaba tomonidan tegishli metodologiya, uslub va ma'lumot manbalaridan foydalangan holda, ishonchli dalillar asosida ochib berilishiga qaratiladi. Mulohazalarni yetarli darajada rivojlantirish, analitik fikr yuritishga o'rgatiladi.</p>
<p>5 (A)</p> <p>100-86</p>	<p>Ish yetarli darajada mustaqil va tanqidiy fikr-mulohazalarni, analiz va sintez qilish qobiliyatini, mantiqiy izchillikni, qator manbalardan foydalanilib keng mushohada yuritishni hamda mavzuni mukammal tushunishni namoyon etadi. Shuningdek, ish juda yaxshi tadqiq qilinib, javobda asosli mulohazalar bildirilgan bo'ladi. Ushbu ish original va talqin mohirona olib borilganligi, tadqiqot tanqidiy tahlil va tanqidiy baholash orqali zarur tadqiqot metodologiyasi, uslublari va manbalaridan foydalanilgan holda yondashilganligi bilan ajralib turadi. Ish yuqori ta'lim standartlari asosida yozilgan bo'lib, biroz tahrir qilish orqali mukammal darajaga yetkazilishi mumkin.</p>
<p>4 (B)</p> <p>85-71</p>	<p>Ish mavzuning aniq anglanganligi va tadqiqot sohasidagi munozaralarda tanqidiy ishtirok etish imkoniyatini ifoda etib, malakali va metodologik xususiyatga ega. Tadqiqot masalalari aniq ko'rsatib o'tilgan va javob berilgan. Asosiy mulohazalar aniq, misollar hamda asoslar o'rinli qo'llanilgan. Ish "A" darajadagi ishlarga qaraganda pastroq sifatda va unchalik original emas. Ishda fikrlar yaxshi tartibda keltirilgan, bayon aniq hamda mantiqan izchil, kirish va xulosa qismlari ravon ifodalangan. Manbalardan yuqori darajadagi ishlardek tizimli yondashilmagan bo'lsa-da, o'rinli qo'llanilgan. Ish "A" darajadagi ishlar kabi izchil bo'lmasa-da, tahliliy qobiliyatni namoyon etadi. Ushbu ish yaxshi ta'lim standartlarini o'zida ifodalagan holda jiddiy grammatik va sintaktik xatolardan holi ravishda yozilgan.</p>
<p>3 (C)</p> <p>70-56</p>	<p>Ishda ishonchli talqin va asoslar keltirishda xatolarga yo'l qo'yilgan. Savolga qisman javob berilgan. Ish asosan bayoniy tarzda (tahlildan holi) ifodalangan. Mantiqiy bog'lash yetarli darajada emas. Ba'zi xulosalar xato keltirilgan. Ushbu darajadagi ishlar muammo mavzusini bazaviy anglashni va bilimni qo'llash bo'yicha ma'lum ko'nikmalarni namoyon etadi. Manbalar ko'rsatilmagan yoki to'g'ri ko'rsatilmagan yoxud yetarli darajada ko'rsatilmagan. Ushbu ish qoniqarli talablar asosida, biroq bir qancha grammatik va sintaktik xatolarga yo'l qo'yilgan holda yozilgan.</p>

2 (D)	Talabga javob bermaydi (nazoratdan o'tmagan).
55-49	Ishning katta qismida mavzudan chetga chiqilgan, markaziy fikr mavjud emas, manbalar va havolalardan noizchil yoki yetarli darajada foydalanilmagan hamda grammatik va sintaktik xatolarga takror-takror yo'l qo'yilgan. Mulohazalarni bazo'r fahmlash mumkin, juda yomon tartib berilgan, fikrlarni anglab olish mushkul yoki anglashning imkoni yo'q. Ish mavjud g'oyalarni tanqidiy fikrlashsiz takrorlaydi. Ish ko'plab isbotlanmagan qarashlar va bayonotlarni o'z ichiga olib, dalillar keltirilmagan yoki asossiz va cheklangan.
0 (F)	Plagiat. Savolga umuman javob berilmagan. Unga aloqador bo'lmagan ma'lumotlar keltirilgan. Talaba ish haqida tasavvurga ega emas va materiallardan foydalana olish bo'yicha bazaviy bilimlarni ko'rsata olmagan. Shu bilan birga ish plagiat bilan yozilgan.

Ta'lim berish va o'qitish metodlari

- interfaol o'quv texnologiyalaridan foydalanish (daydjest, keys-stadi, kichik guruhlarda ishlash; deklamatsiya, konferensiyalar, taqdimotlar);
- power point taqdimotlaridan foydalanish;
- reytinglar va kumulyativ boshqaruv tizimidan foydalanish.

Kalit so'zlari

Tafakkur uslubi, Sharq falsafasi, G'arb falsafasi, borliq falsafasi, yo'qlik dialektikasi, geotsentrik va nogeotsentrik tizimlar, materiya, materiyaning atributi, bilish nazariyasi, tarix falsafasi, falsafiy antropologiya, ongsizlikning tabiati, globallashuv hodisasi va globalistika, mantik ilmi, xulosa chikarish, argumentlash, paralogizm, sofizm, paradoks.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar

№	Mavzular	soat	
		m	s
1.	Falsafa fanining predmeti, mazmuni va ilm-fan, madaniyat taraqqiyotidagi o'rni.	1	1
2.	Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari	1	1
3.	Borliq, ontologiya va metafizika.	1	1
4.	Falsafada ong muammosi. Bilish nazariyasi va yo'nalishlari	1	1
5.	Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari	1	1
6.	Jamiyat va tarix falsafasi. Qadriyatlar.	1	1
7.	Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)	1	1
8.	Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlar. Innavatsion texnologiyalar.	1	1
9.	O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy, g'oyaviy asoslari	1	1
10.	Mantiq ilmining predmeti va axborotni tahlil qilishdagi ahamiyati	1	1

11.	Dinshunoslik faniga kirish.	1/1
12.	Milliy dinlar	1/1
13.	Jahon dinlari	1/1
14.	O'zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati	1/1
15.	Diniy ekstremizm va terrorizm. Kibermakon va zamonaviy diniy jarayonlar	1/1
	Jami:	15/15

Fan bo'yicha savollar to'plami

1. Falsafiy dunyoqarashning o'z-o'zini anglashdagi roli.
2. Dunyoning hozirgi zamon ilmiy manzarasining tahlilida falsafiy tafakkur
3. Insoning maxnaviy kamolotida falsafiy dunyoqarashning roli
4. Fan ilmiy dunyoqarash shakli
5. Bilim inson ma'naviy kamoloti omili.
6. Tarix falsafasi va falsafa tarixi uyg'unligi.
7. Inson, uning huquq va ekrinliklari oliy qadriyat.
8. Globallashuv sharoitida antropologik inqirozning oldini olishning zaruriyati.
9. Ilmiy va ijtimoiy bashoratning o'zaro aloqadorligi.
10. Ontologik va munosabatdosh kategoriyalarning uyg'unligi.
11. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi.
12. Diniy madaniy an'analarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri.
13. Sog'liq oliy qadriyat.
14. Oila va oilaviy qadriyatlar ma'naviy madaniyatning bosh omili.
15. Shaxs ma'naviyatining shakllanishiga ijtimoiy muhit va davr ruhining ta'siri.
16. Sharq va G'arb falsafasida inson masalasi.
17. Tabiatni o'rganishga oid qarashlar tarixi.
18. Rim klubi faoliyatining falsafiy tahlili.
19. Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy tizimi.
20. Ta'lim global muammo sifatida.
21. Falsafa qonun va kategoriyalarining ijtimoiy jarayonlar dialektikasidagi roli.
22. Xukm tafakkur shakli sifatida.
23. Hukmning tarkibi va xususiyatlari.
24. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi.
25. Xulosa chiqarishning tuzilishi.
26. Xulosa chiqarish turlari.
27. Islomning vujudga kelishi va tarqalishi.
28. Qur'oni karim Sharq xalqlarining diniy, ilmiy va ma'naviy merosi sifatida.
29. Hurfikrlilik va ma'rifatparvarlik.
30. Moturidiy maktabi ta'limotida inson erki va taqdir masalalari.
31. Vijdon va e'tiqod erkinligi haqida.
32. O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar.
33. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik.
34. Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari.
35. Ilmiy muammolarning vujudga kelishi va mantiqiy tuzilishi, ularning turlari va hal qilinishi.
36. Oilaning psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muhitining farzand tarbiyasiga ta'siri.
37. Oila nomusi va sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas'uliyati.
38. Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar.

Fan doirasida tavsiya qilinadigan nazariy-metodologik va asosiy manbalar:

Nazariy-metodologik adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. -53 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2017 -484 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. -28 b.
4. Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-24 jildlar.- T.: O'zbekiston, 1996-2016.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma'naviyat, 2016, -176 b.

Asosiy adabiyotlar:

6. Madaeva va boshq. Falsafa. –Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2019.
7. Q.Nazarov [va boshq.]. Falsafa asoslari [Matn]: o'quv qollanma / - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.
8. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida.-Toshkent: UFMJ, 2006.
9. Izzetova E., Po'latova D. Filofofiya. -Toshkent: Sharqshunoslik, 2012. 340-b
10. Pulatova D., Fayzixo'jaeva D. Mantiq (o'quv-qo'llanma) T.: «PREMIER PRINT . 2013.
11. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma) / Mualliflar jamoasi. – T.: “Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi”, 2013. – 320 b.
12. Saifnazarov I., Sultonov T., Ilhomjonov L., Xalimmetova R. Dinshunoslik: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2019. – 180 b.

Axborot manbalari:

13. <http://www.philosophy.ru>.
14. <http://www.ido.rudn.ru>.
15. <http://www.filosofia.ru>.
16. <http://www.falsafa.dc.uz>.
17. <http://www.phenomen.ru>.
18. <http://www.lib.ru/FILOSOF>.
19. <http://www.Ziyo.net.uz>

O'qituvchining kontakt ma'lumotlari

+998998186435/ navrozbekraximov@gmail.com

O'qituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti

Seshanba/payshanba